



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Jizzax viloyatidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati o'rganish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunlari, Jizzax viloyati Jizzax shahridagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2023/2024-o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, pedagoglar tomonidan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonlari va ish hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi, guruhlardagi rivojlantiruvchi ta'lim muhitining belgilangan me'yorlar asosida yaratilganligini, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quv-didaktik materiallardan samarali foydalanilayotganlik holatlarini o'rganish maqsadida **buyuraman:**

1. Jizzax viloyati Jizzax shahridagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati mazkur buyruqning **1-ilovasiga muvofiq savolnomaga asosan kompleks o'rganilsin.**

2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan Jizzax viloyatiga xizmat safariga yuboriladigan ishchi guruh (bundan buyon matnda Ishchi guruh deb yuritiladi) tarkibi va xizmat safari muddatlari **2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda xizmat safariga yuborilsin.**

3. Jizzax viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i S.Suyarova Ishchi guruh xodimlariga xizmat safari bilan bog'liq zarur shart-sharoitlarni yaratib berish vazifasi yuklansin.

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Z.Togayeva) Ishchi guruhni hududlarga safarga yuborish bo'yicha tegishli hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirsin.

5. Ishchi guruh a'zolari xizmat safari yakunlari haqidagi hisobotni safardan qaytgandan so'ng 3 (uch) kun muddatda vazirlik rahbariyatiga taqdim etsin.

6. Belgilab qo'yilsinki, xizmat safariga yuborilgan xodimlarning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlari asosiy ish joyidan o'rnatilgan tartibda to'lanadi.

7. Ushbu buyruqning ijrosini samarali tashkil etishga tegishli yo'nalish bo'yicha **mas'ul va shaxsiy javobgar etib** vazirning birinchi o'rinbosari-Maktabgacha ta'lim agentligi direktori A.Shin belgilansin.

Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil "18"-avgust,
249-son



X.Umarova

Jizzax viloyatidagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini o'rganish SAVOLNOMASI

1. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq amalga oshirilgan ishlar tahlili.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan mahalladagi jami 3-7 yoshli bolalar soni va ulardan quvvatiga nisbatan tashkilotga qamrab olingan bolalar soni (*qamrab olish darajasi*).
3. "Bolalar bog'chasi" axborot tizimiga kiritilgan va haqiqatda aniqlangan ma'lumotlarning o'zaro mutanosibligi (*MTT quvvati, guruhlar soni, qatnovchi bolalar soni*).
4. Har bir bolaning yo'llanmasi mavjudligi. (*yo'llanmaning haqiqiyligini QR kod orqali tekshirish*).
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ichimlik suvi, elektroenergiya, gaz bilan ta'minlanganlik holati, markazlashgan kanalizatsiya tizimi va internet tarmog'iga ulanganligi.
6. Maktabgacha ta'lim tashkilotining hududi devor (panjara) bilan o'ralganligi, yong'in xavfsizligiga doir qurilmalar mavjudligi va ularning jihozlanganligi.
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotining quvvati hamda guruhlardagi bola soniga nisbatan jihozlanganlik holati (*krovat, stol, stul, shkaf*), shuningdek, didaktik materiallar va ko'rgazmali qurollar, tarqatmalar bilan ta'minlanganligi.
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik holati. *Pedagog kadrlar salohiyati, bunda oliy ma'lumotli pedagog kadrlarning jami pedagog kadrlarga nisbatan ulushi. Malaka toifalariga ega bo'lgan pedagog kadrlar soni (oliy, 1-,2-toifadagi pedagog kadrlar)*.
9. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar uchun sanitariya-gigiyena talablariga mos ravishda sog'lom ovqatlantirish ishlari to'g'ri tashkil etilganligi.
10. Me'yoriy hujjatlar yuritilishi (brakeraj qayd etish daftarini taomnoma bilan mutanosibligini o'rganish).
11. Pedagog xodimlar o'rtasida vazifalar taqsimoti to'g'ri yo'lga qo'yilganligi.
12. Qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori va jalb qilingan mutaxassis yoki bolaning ota-onasi yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslardan biri bilan shartnoma tuzilganligi hamda tushgan mablag'larning to'g'ri sarflanishi.
13. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayoni sifatini ta'minlash bo'yicha aniq choralar belgilanganligi.
14. Maktabgacha ta'lim tashkilotida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida ta'lim-tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etilish holati, tarbiyachlarning mashg'ulotlarda mavzuga xos bo'lgan ko'rgazmali va tarqatmali materiallardan foydalanishi va o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksi joriy qilinishini va uning ishlashini ta’minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 5-dekabrda 971-son qarori ijrosi.

16. Shaxsiy tarkibga oid buyruqlarni mehnat qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilganligi.

**Jizzax viloyatiga xizmat safariga yuboriladigan ishchi guruh
tarkibi va xizmat safari muddatlari**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi	Xizmat safari muddati	Xizmat safariga yuboriladigan hudud nomi
1.	Keldibekov Farxod Uralovich	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bo'limi boshlig'i	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati
2.	Sayfitdinov Nodir Bektoshovich	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bosh mutaxassisi	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati
3.	Mirjalilova Saboxat Saatovna	Maktabgacha ta'lim agentligi bosh mutaxassisi	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati
4.	Kadirov Baxadir Batirovich	Maktabgacha ta'lim agentligi bosh mutaxassisi	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati
5.	Yuldashev Azamat Ubaydullayevich	Maktabgacha ta'lim agentligi bosh mutaxassisi	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati
6.	Dustov Davron Zulxaydarovich	Maktabgacha ta'lim agentligi bosh mutaxassisi	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati
7.	Tadjibayev Zokir Abduxakimovich	Maktabgacha ta'lim agentligi yetkchi mutaxassisi	2023-yil 21-22-avgust	Jizzax viloyati

